



O'SMIRLIK DAVRIDA OILADAGI TARBIYANING O'RNI VA DEVIANT HULQ SHAKLLANISHIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR

Shuxratjonova Rixsinisaxon Nasrulla qizi

NamDU Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarda deviant xulq shakllanishi sabablari va uning oldini olish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, deviant xulq, guruhiy trenninglar, tarbiya, ijtimoiy psixologiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины девиантного поведения у подростков и его профилактика.

Ключевые слова: подростковый возраст, девиантное поведение, групповое тренинги, воспитание, социальная психология.

Abstract: This article discusses the causes of deviant behavior in adolescents and its prevention.

Key words: adolescence, deviant behavior, group training, education, social psychology.

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning o'dob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".

Sh.Mirziyoyev

Mamlakatimizda bugungi kunda barcha e'tibor yoshlarga qaratilmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ammo bunday sharoitlardan o'smirlarga oqilona, to'g'ri foydalanishni o'rgatishda albatta oiladagi tarbiyaning o'rne alohida. Inson ontogenezidagi eng og'ir va murakkab davrlardan biri ham o'smirlik davridir. Shaxsning ijtimoiy yo'nalganligi, qadriyatlarini, e'tiqodi va ideallari shakllanadigan ushbu davr og'ishgan xulq-atvor ko'rinishlarining namoyon bo'lishi uchun ham eng qulay davr hisoblanadi. Ulardagi gormonal hamda ruxiy o'zgarishlar sababli, o'smirlarda o'zligini anglash bilan bog'liq bir qancha muammolar vujudga keladi. Ushbu o'zligini anglash bilan bog'liq ehtiyojlarning qondirilmasligi bolada tajavuzkorlikni vujudga keltiradi va u o'zi yoqotgan narsasining o'rniga boshqalarnikini o'zlashtirib olishga intiladi. Mustaqillikka, erkinlikka bo'lgan ehtiyojning qondirilmasligi esa tajavuzkorlikka, namoyishkorona bo'ysunmaslikka, uydan qochib ketish yoki shunga o'xshash holatlarni vujudga keltiradi. Bunday xulq-atvor psixologlar tomonidan "Deviant xulq" deb ham nomlanadi. Ya'ni:

Deviant lotincha "deviatio" so'zidan olingan bo'lib, og'ish, chetga chiqish degan ma'nolarni anglatib, ko'pgina hollarda sotsial sanksiyalarga muhtoj bo'ladi. Deviant xulq-atvor jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat, xatti-

harakat, yoki ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Deviantsiyaning shunday ko'rinishlari borki, ular odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar normalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatga jiddiy zarar yetkazmaydi.

Deviant xulq shakllanishiga yana bir sabab bu oiladagi va tengdoshlari davrasidagi nosog'lom muhit hisoblanadi. Noto'g'ri tarbiya bolada avvalo ijtimoiy hayotdagi qoida va normalarga nisbatan mensimaslik yoki salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Va keyinchalik asotsial og'ishgan xulq, katta jinoyatchilik motivlari shakllana boshlaydi.[1] Olib borilayotgan tadqiqotlarga ko'ra, o'smirlarda taqlidchanlik kuchli bo'lib, ularning xulq-atvoriga o'z ta'sirini ko'rsatyapdi. Jamiyatda tajavuzkorlik va jinoyatchilikni oldini olish ertangi kunning maqsadi bo'lsa, o'smirlarda deviant xulq shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish va korrektsiya ishlarini olib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Olimlarimiz Deviant xatti xarakatlarning sabablarini 3ga bo'lishgan. Bular:

- Biologik – (C.Lambroso – odam shunday tug'ilgan.)
- Psixologik – (Z.Freyd – bu biz bolalikdan oladigan psixologik komplekslar sababli)
- Ijtimoiy – (turli xil turmush sharoiti yoki turmush tarzi, tabiiyki odamlarda jamiyatda o'zini qanday tutish kerakligi haqida turli xil g'oyalar paydo bo'lishiga olib keladi va deviant xatti-harakatlarga undaydi).

O'smirlarda deviant xulq atvor shakllanishining oldini olish uchun tavsiya etiladigan usullar: [2]

Axborot yetkazish usuli ya'ni bunda ma'ruzalar, suxbatlar qurish, telefilmlardan foydalanib, shaxsning bilish qobiliyatiga va qiziqishlariga ta'sir qilgan xolda o'smirda to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatini shakllantirish.

Guruhiy trenninglardan foydalanish usuli. Bu usul orqali deviant xulqning yo'nalishini yaxshi xususiyatlari tomon burish hisoblanadi va trenning jarayonida:

- Ba'zilarining salbiy ta'siriga qarshi o'z fikriga ega bo'lish;
- Ichuvchi kattalar ta'siriga tushmaslik;
- Kimdir ta'sir, bosim o'tkazayotganda yo'q deya olishni bilish;
- Stress xolatlarida o'zini munosib tuta olish;
- Qaror qabul qilishda o'zini to'g'ri baholashga o'rgatadi.

Deviant xulqqa muqobil xulq-atvorni shakllantirish usuli. Deviant o'smirlar bilan ishlash jarayonida deviant xulq o'rnini bosuvchi ijobiy xulqni shakllantirish. Masalan: giyohvand moddalarga ruju qo'ygan o'smirlarda "O'z o'ziga ishonchni" orttirish. Chunki, ko'p xollarda psixotrop moddalarning kayfiyatni ko'tarish xususiyatiga qiziqadilar, kayfiyatni tabiiy yo'llar bilan o'zgartirilishi profilaktikaning asosiy vazifasidir. Bundan tashqari o'smirlarda vaqtni to'g'ritaqsimlash, ijobiy xislatlarini doimiy rag'batlantirish ham Deviant xulq atvor shakllanishining oldini oladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamilova N.G "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi", Toshkent.: 2009
2. Ibodullayev Z "Tibbiyot psixologiyasi", Toshkent.: 2012